

## **9-mavzu: "Tog'lar " she'ri (Azim Suyun)**

### **Darsning maqsadi:**

- a)ta'lifiy:** o`quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, she'r mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.
- b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga tabiatni asrashni ,tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanishni, uning go`zalliklaridan bahra olishni o`rgatish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
- c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, "BBB" metodi , Aqliy hujum" usuli, "Rasmlı rebus","Sirli raqamlar" ta'lifiy o`yinlari,"Bu so`z meniki" o`yini.

**Dars jahozi:** Rangli rasmlar, tarqatma materiallar,videolavha

### **Darsning borishi:**

#### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o`tkazish.

#### **II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "Bir-birin kuzatar fasllar" she'rini o`quvchilar ifodali o`qib beradilar.

#### **"Aqliy hujum" metodi.**

1.Sher nima haqida yozilgan?

2.Yil fasllari nechta?

3.Ularning nomlarini ayting?

4.Har bir fasl necha oydan iborat?

5.Fasllarning inglizcha nomini ayting.

**Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**

Tabiat manzaralari videolavhasi ko`rsatiladi.

### III.Yangi mavzu bayoni.

#### "Rasmlı rebus" o'yini

Rasmdagi narsalar nomini birinchi harfini bo'sh kataklarga joylashtirilsa, bugungi mavzuning nomi kelib chiqadi.



T	O	G'	L	A	R
---	---	----	---	---	---

Bugun siz bilan Azim Suyunning "Tog'lar" she'ri bilan tanishamiz. She'r o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

#### Lug`at ishi:

**Tug`dona** – toshdaraxt, qayrag`ochdoshlar oilasiga mansub bo`lib,barg to`kadigan, doimiy yashil daraxtlar turkumiga kiradi

**Andiz** – qoqidoshlar oilasiga mansub ko`p yillik dorivor o't She'r o'quvchilarga zanjir usulida o'qtiladi.

#### "Bu qiziq".

Tog`lar haqida qiziqarli ma'lumotlar aytiladi.

### IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

#### Savollar:

1.She'rda tog`lar qanday tasvirlangan?

2.Siz tog`ga borganingizda nimalarni his qilgansiz?

3.Tog`larni tasvirlash taklifi berilsa, nimalarni aks ettirasiz?

4.Fasllarda tog`larning o`zgarishi haqida nimalarni bilasiz? Sizningcha, kuz

faslida tog`lar qanday tusga kiradi?

**5.**Tasavvur qiling, siz tog`ga ketyapsiz.O`zingiz bilan nimalarni olib ketgan bo`lar edingiz?

**6.**U yerda ovqatlanmoqchi bo`lsangiz , gugurtdan foydalangan bo`larmidингиз?

### **Tez aytish musobaqasi o`tkaziladi.**

Osmonning osti yermi, Yerning usti osmonmi?!

### **Mashq daftar bilan ishslash.**

#### **1-topshiriq. "Sirli Alifbo"**

Raqamlar ortiga harflar yashirilgan. Harflarlarni Alifbo tartibida to`g`ri qo`yib chiqsangiz, o`zbek xalq maqollaridan birini bilib olasiz.

**19 14 24 1 7 1 21 14 - 3 1 17 3 6 1 3 1 21 14**

T	O	Z	A	H	A	V	O	D	A	R	D	G	A	D	A	V	O
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

#### **2-topshiriq.**

Savollarga javob bering.

Mashq daftarida berilgan savollarga javob yoziladi.

#### **3-topshiriq. Bilasizmi? Qiziqarli ma'lumotlar o`quvchilarga o`qitiladi.**

“Bu so`z meniki” o`yini.

Bu o`yinni o`tkazish uchun she`rni ifodali,yoddan aytgan 10 nafar o`quvchi tanlab olinadi.Boshqa o`quvchilar o`z faoliyklarini namoyish qilishlari mumkin.She`r tarkibida uchragan so`zlarni tarqatmalar ortida yozilgani bo`yicha o`qiylilar hamda izohlab o`tadilar.O`quvchilar so`zni to`g`ri izohlab o`tsalar so`z yozilgan tarqatmani o`z savatlariga soladilar va yig'ib boradilar.

### **V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

### **Savol-javob o`tkaziladi.**

-Bugungi darsimiz sizlarga yoqdimi?

-So`z va ularni izohlashda qiyinchiliklarga duch kelmadingizmi?

**“BBB” metodi** orqali bugungi darsga xulos qilinadi.?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

## **VI.Uyga vazifa berish.**

She'rni yod oling. O`zingiz yoqtirgan tabiat manzarasi rasmini chizing.

### **10-mavzu: "Karim polvon “ hikoya (Abdulla Saidov )**

#### **Darsning maqsadi:**

- a)ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.
- b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga milliy marosimlar va o`yinlar haqida, ularning ahamiyati haqida o`rgatish, milliy an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.
- c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat,tushuntirish metodi,savol-javob, ta'limiy o`yinlar.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

#### **Darsning borishi:**

##### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

##### **II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "Tog`lar" she'rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar.

##### **"Klaster" usuli**